



THE STATE OF THE HEALTHCARE SECTOR IN THE SEMIRECHYE AND TRANS-CASPIAN REGIONS DURING THE PERIOD OF RUSSIAN COLONIAL RULE

Zavqiddin Buriyev

Doctoral Candidate (DSc), Bukhara State University

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Email: boriyevzavqiddin@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Turkestan General-Governorship, Trans-Caspian region, Semirechye region, feldsher stations, societies, hospitals.

Abstract: The government of the Russian Empire implemented a number of necessary measures to develop healthcare in the Trans-Caspian and Semirechye regions, along with all other provinces of the Turkestan territory.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

ROSSIYA MUSTAMLAKACHILIGI DAVRIDA YETTISUV VA KASPIYORTI VILOYATLARIDA TIBBIY SOHANING AHVOLI

Zavqiddin Buriyev

Buxoro davlat universiteti doktoranti(DSc)

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

boriyevzavqiddin@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston general-gubernatorligi, Kaspiyorti viloyati, Yettisuv viloyati, fedsherlik punkti, jamiyatlar, shifoxonalar.

Annotatsiya: Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Kaspiyorti hamda Yettisuv viloyatlarida tibbiyotni rivojlantirish borasida bir qator zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi.

СОСТОЯНИЕ МЕДИЦИНСКОЙ СФЕРЫ В СЕМИРЕЧЕНСКОЙ И ЗАКАСПИЙСКОЙ ОБЛАСТЯХ В ПЕРИОД РОССИЙСКОГО КОЛОНИАЛЬНОГО ПРАВЛЕНИЯ

Завкиддин Буриев

Докторант (DSc), Бухарский государственный университет

Доктор философии (PhD) по историческим наукам

Электронная почта: boriyevzavqiddin@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, Туркестанское генерал-губернаторство, Закаспийская Семиреченская область, фельдшерские пункты, общества, больницы.	Аннотация: Российская империя приняла ряд необходимых мер по развитию здравоохранения в Закаспийской и Семиреченской областях наряду со всеми другими регионами Туркестанского края.
---	---

Kirish. Mustamlaka ma'muriyati tub aholidan ishlov beriladigan yerlarni hamda yaylovlarni metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarni joylashtirish, davlat yer fondini vujudga keltirish, buyuk knyazlar mulklari uchun yerlarni mustamlakachilarcha tortib olish amaliyotini asosan kuch bilan keng qo'llangan holda, sanoatchilar, banklar va savdo shirkatlari, Rossiya firmalarining manfaatli ishtiroki bilan dastlabki yigirma-o'ttiz yil ichida Turkiston qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli universal xususiyatini jiddiy ravishda o'zgartirib, Markaziy Yevropa to'qimachilik va yengil sanoatiga bo'ysundirilgan xomashyoga, eng avvalo, paxtaga ixtisoslashtirdilar. Turkiston ham asosan agrar mintaqaga bo'lgani, aholisining ko'pchiligi natural xarakterdagi emas, balki bozorga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullangani bois tub xalqlar iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etilgani, ishlab chiqarish kuchlarining bir yoqlama rivojlanishiga olib keluvchi paxta yakkahokimligi o'rnatilgani, tub qishloq aholisi orasida kam yerli va yersizlar soni keskin ko'payganligi, uning kambag'allashuvi Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining eng jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini sifatida keltirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ushbu maqolada Rossiya mustamlakachiligi davrida Turkiston general-gubernatorligining Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarida tibbiyotning ahvoli va uni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar qiyosiy tahlil, tarixiylik, tarixiy-tizimli yondashuv kabi bir qator usullar yordamida tahlil qilingan.

Natijalar tahlili. Rus dehqonlarni dehqonchilik hududlarda joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan temir plug, mexanik seyalkalar, o'rish mashinalari, mineral o'g'itlar, bahorikor ekinlarga ishlov berish agrotexnikasi singari yangiliklar esa ko'chirib keltirilgan rus aholi uchungina bo'lib, hukumat ularni tashkiliy, siyosiy va moddiy qo'llabgina qolmay, qurol bilan ham ta'minlab, o'zlarining «iqtisodiy» imkoniyatlarini oshirib borardi. Ahvol shunday bo'lishiga qaramay, tub

qishloq aholisi jinoyatlarga moyil bo'lmagani, halol mehnatga, jamoa, oila turmush an'alariga sadoqatini yo'qotmagani va ustiga ustak o'z turmush tarzi bilan Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga muayyan ta'sir ko'rsatganligi g'oyat muhimdir. Rossiya imperiyasi va o'lka ma'muriyati Turkiston xalqlariga nisbatan shu qadar shovinistik qarashlarda ediki, hatto G'ulja o'lkasini Xitoyga qaytargani, 50 mingdan ziyod uyg'ur, dungan qochoqlarini Yettisuv viloyatiga joylashtirgani uchun (1881-yil 12-fevraldagi Peterburg shartnomasi bo'yicha) Xitoy hukumatidan 9 million rubl tovon olgani holda[1], ushbu ishlar bilan bog'liq barcha og'irliklarni tub aholi zimmasiga ag'dardi.

Muhokama. Ko'chirilgan aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash maqsadida turli jamiyatlar va uyushmalar tashkil etildi. Yettisuv viloyati shaharlarida XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida "Yettisuv viloyatiga ko'chirilgan muhtojlarga yordam ko'rsatish jamiyati"[2], "Verniy (Olmaota) xayr-ehson jamiyati", "Jarkent shahar kambag'allariga moddiy yordam ko'rsatish jamiyati", "Verniy shahridagi prikazchiklarni o'zaro qo'llab-quvvatlash jamiyati", "Kopal shahar kambag'allariga ko'mak (homiy) jamiyati", "Verniy shahri o'quv yurtlaridagi o'quvchilariga ko'mak jamiyati", "Pishpek shahar o'quvchilariga ko'mak jamiyati", "Prejevalsk shahar muhtoj o'quvchilariga homiylik jamiyati" kabilar faoliyat yuritgan[3].

Yuqorida qayd etilgan uyushmalar jamoatchilik asosida tuzilgan bo'lib, asosan, xayr-ehson va mehr muruvvat ko'rsatish maqsadlarini ko'zlagandi. Mazkur jamiyatlar bilan birga o'nlab mehr-muruvvat va xayr-ehson ko'rsatuvchi klub hamda to'garaklar ochilgan. Klub va to'garaklar faoliyat yuritar ekan, ularning ko'pchiligi qisqa vaqt yashagan bo'lsada, imkon qadar xayrli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi.

"Imperatritsa Mariya Aleksandrovna homiyligidagi ko'zi ojizlarni himoya qilish jamiyati" ko'z kasalliklari va ko'rmay qolganlarga g'amxo'rlik qilish, ularni tekin davolash, ko'zi og'rib qolgan fuqaro va harbiylarni tabaqasiga ajratmay ularga moddiy yordam berish, kasallanib qolgan qashshoqlarga tekin dori-darmonlar tarqatish, arzon dorixonalar ochish, tibbiyot ashyolari (ochki, marli, vata, turli vitamin va konservalar, h.k) ni arzon narxda yoxud tekin tarqatish kabilarni yo'lga qo'ygan.

Ushbu jamiyatga tushadigan mablag'lar manbasi turlicha bo'lib, 1908- yilda jamiyat a'zolari badallaridan 370 rubl; ixtiyoriy mablag'lar hisobidan 3182 rubl 51 kop; cherkov ehsonlari va turli tuman klublardan 816 rubl 91 kop; kapital foizlardan 1847 rubl 86 kop; hukumat va boshqa idoralar hisobidan 4.648 rubl 35 kop miqdoridagi pullar tushgan.

Jamiyatning eng muhim davolash markazlari Toshkent va Verniyda joylashganligi tufayli ularga ko'plab bemorlar murojaat qilgan. 1908- yil Toshkent davolash markaziga 14.443 rubl 36

kop, Verniyga 2252 rubl 50 kop xarajat qilingan bo'lsa, 1909- yilda ushbu xarajatlar summasi 15.775 rubl 23 kop va 2746 rubl 22 kopni tashkil etgandi[4].

1910 – 1911-yillarda har bir davolash markazining kapital mablag'lari jamg'armasi tashkil etilgan. Agar 1910 yilda Toshkent shahar kasalxonasi kapital mablag'i 16.293 rubl 36 kopni tashkil etgan. Verniy kasalxonasida 1911-yilda 16.865 rubl 10 kop. kapital mablag' mavjud bo'lgan. Skobelov kasalxonasida 1910 yilda 2556 rubl 28 kop, 1911-yilda 2806 rubl 42 kop kapital mablag' bor edi[5].

Ushbu kapital mablag'lari miqdori 1914-yilga qadar ko'payib borib, har yili 20 – 25 foizga oshgan. Biroq Birinchi jahon urushi tufayli iqtisodiy inqiroz yuz berishi jamiyat ixtiyoridagi miqdorining kamayishiga olib kelgan[6].

Kaspiyorti viloyati statistik ma'lumotlariga ko'ra, 1904 yilda viloyatda shtatli va erkin vrach, feldsher va akusherlar taqsimoti quyidagicha bo'lgan[7].

№	Viloyat uyezdlari	Vrachlar soni	Feldsherlar soni	Akusherlar soni
1	Ashxobod	10	9	5
2	Krasnovodsk	1	4	1
3	Mang'ishloq	2	3	1
4	Marv	1	6	1
5	Tajan	1	4	2

Viloyatda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida 1914-yil ma'lumotlariga ko'ra, Kaspiyorti viloyati 5 ta uyezd shahrining uchtasida, yani Ashxobod, Marv va Mang'ishloq uyezd markaziy shaharlarida shahar kasalxonalari faoliyat yuritgan. Ashxobod shahar shifoxonasi 60 o'rinli bo'lib shundan, 4 ta o'rin yuqumli kasalliklar, 10 ta ruhiy kasalliklar, 2 ta o'rin tug'ruq bo'limiga ajratilgan edi. Shifoxona ta'minoti shahar mablag'lari hisobidan moliyalangan. Ashxobod shahar shifoxonasida 2 nafar vrach, 5 nafar feldsher, 2 nafar akusher faoliyat yuritgan. Shahar shifoxonasi pullik, shuningdek, kam ta'minlangan mahalliy va ko'chib kelgan aholi uchun tekin tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan.

Shuningdek, 68 o'rinli Ashxobod temiryo'l shifoxonasi ham mavjud bo'lib, 20 ta o'rin yuqumli kasalliklar, 6 ta ruhiy kasalliklar, 6 ta o'rin tug'ruq bo'limiga ajratilgan edi. Ashxobod temiryo'l shifoxonasida 3 nafar vrach, 6 nafar feldsher, 2 nafar akusher faoliyat yuritgan. Ashxobod temir yo'l shifoxonasi asosan temiryo'l bo'limiga xizmat ko'rsatib, pullik shuningdek, kam ta'minlangan mahalliy va ko'chib kelgan aholi uchun tekin tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan.

Bundan tashqari 40 o‘rinli Qizilrvat temiryo‘l shifoxonasi ham mavjud bo‘lib, unda 1 nafar vrach, 5 nafar feldsher, 1 nafar akusher faoliyat yuritgan.

Bu davrda Krasnovodsk uyezdida temiryo‘l shifoxonasi ham mavjud bo‘lib, uning 26 ta o‘rni yuqumli kasalliklar va onalar bo‘limiga ajratilgan. Ushbu shifoxona Krasnovodsk temir yo‘l bo‘limi tomonidan moliyalangan. Unda 1 nafar vrach, 7 nafar feldsher, 1 nafar akusher faoliyat yuritgan. Shifoxona temiryo‘l ishchilariga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatgan.

Cheleken sanoat shifoxonasi mavjud bo‘lib, unda 10 ta o‘rin yuqumli kasalliklar va tug‘ruq bo‘limlariga ajratilgan. Bunda neft koni ishchilari tibbiy muolaja olgan. Ushbu shifoxonada 1 nafar vrach va ikki nafar feldsher faoliyat yuritgan. Bu shifoxona mahalliy yig‘imlar va kon mablag‘lari hisobidan moliyalangan.

Krasnovodsk uyezdida asosan ko‘chib kelgan rusiyzabon aholi Krasnovodsk shahar ambulatoriyasi, Krasnovodsk temiryo‘l shifoxonasi, Krasnovodsk porti tibbiy qabul qilish bo‘limi, Qozonjik temiryo‘l shifoxonasi, Cheleken sanoat shifoxonasi, Qoraqal‘a feldsherlik punkti, Hasanquli feldsherlik punkti, Jebel temiryo‘l feldsherlik punkti, Mo‘llaqora loy bilan davolash shifoxonasi, Krasnovodsk “Ufra” sihatgohiga tibbiy xizmatlar olish uchun murojaat qilishgan[8].

Bu davrda Marv uyezdida markazida 20 o‘rinli shahar shifoxonasi ham faoliyat yuritgan. Bu shifoxona shahar mablag‘lari hisobidan moliyalanib, unda tibbiy xizmatlar kam ta‘minlangan shahar aholisiga bepul bo‘lib, kunlik yotib davolanish uchun statsionar pullik davolanish bo‘limlari ham mavjud bo‘lgan.

Ushbu shahar shifoxonasi huzudida 10 o‘rinli davolash klinikasi ham mavjud bo‘lib, 1 nafar vrach va 1 nafar feldsher faoliyat yuritgan. Ushbu davolash klinikasi rusiyzabon aholi bilan birga mahalliy aholiga ham tibbiy emlash xizmatlar ko‘rsatib, bu muassasa mahalliy zemstvo mablag‘aridan moliyalangan. Marv uyezdida Iolatan jamoat shifoxonasi 12 o‘rinli bo‘lib, unda himoyalangan yuqumli kasalliklar bo‘limi mavjud bo‘lgan. Unda 1 nafar vrach, 2 nafar feldsher faoliyat yuritgan.

Bundan tashqari Marv uyezdida alohida ko‘z kasalliklari shifoxonasi, Marv va Kushka mahalliy lazaret tibbiyot bo‘limlari, Taxtabozor va Aleksevskiy feldsherlik punktlari, Marv temir yo‘l bo‘limi shifoxonalari mavjud bo‘lgan.

Mang‘ishloq uyezdida ham tibbiyot muassasalari jumladan, zemstvo mablag‘laridan moliyalanadigan, 10 o‘ringa ega Mang‘ishloq mahalliy zemstvo davolash bo‘limi, Fort Aleksandrovskiy mahalliy lazaret shifoxonasi, Saraxs, Kaxkin, Meanin, Nikolaevskiy, Kinderlinskoy, Qoratorov, Karazachinskiy, hamda Dolgiy ostrov nomli feldsherlik punktlari mavjud edi.

Bundan tashqari Ashxobod va Krasnovodsk uyezd markazlarida tibbiy kuzatuv stansiyalari ishlab turgan. Viloyatda aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida ambulatoriyalar faoliyat yuritgan. 1914 yil ma'lumotlariga ko'ra, Marv uyezdida markazida 4 ta ambulatoriya, qolgan 4 ta uyezdida 1 tadan ambulatoriyalar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Bundan ko'chib kelgan rusiyzabon hamda mahalliy aholi vakillari tibbiy xizmatlar qabul qilgan.

1914 yil holatiga ko'ra, Kaspiyorti viloyatida 16 ta feldsherlik punktlari mavjud bo'lib, uyezdlar bo'yicha taqsimlaganda uyezdlar misolida taqsimlaganda Ashxobod uyezdida 3 ta, Marv uyezdida 2 ta, Tajan uyezdida 3 ta Krasnavodsk uyezdida 2 ta, Mang'ishloq uyezdida 6 ta feldsherlik punktlari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan[9].

Kaspiyorti viloyatida 15 ta uyezd va qishloq dorixonalari mavjud bo'lib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatgan. Dorixonalarni uyezdlar misolida taqsimlaganda Ashxobod uyezdida 6 ta, Marv uyezdida 5 ta, Tajan uyezdida 3 ta Krasnavodsk uyezdida 1 ta dorixona mavjudligi ma'lum bo'ladi[10].

Lekin viloyat ma'muriyati qanchalik darajada aholini ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ehtiyoj qondirish borasida ishlarni olib bormasin, turli sabablarlarga ko'ra (iqtisodiy, tashkiliy) ular yetarli darajada tashkil etilmadi.

Ta'kidlash joizki, rus manzilgohlaridagi aholiga sog'liqni saqlash borasida xizmat ko'rsatish jarayonida bir qator muammolar mavjud edi: Birinchidan, tibbiyot xodimlari yetishmasligi, ikkinchidan, tibbiyot muassasalarining binolari talabga javob bermaydigan uylarda joylashganligi, uchinchidan, esa dori-darmonlarni o'z vaqtida yetkazib berilmasligi, to'rtinchidan, posyolkalarda, ayniqsa, shahar markazlarida sanitariya-gigiena holati nochorligi va hakoazolarni qayd etib o'tish mumkin.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Kaspiyorti viloyatida ham ko'chirilgan aholining ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi. Viloyatda rus dehqonlari mustahkam o'rnashib qolishi uchun cherkov va ibodat uylari barpo etildi, ushbu diniy muassasalar, ular qoshidagi o'quv muassasalari kadrlar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. Ko'chirilgan aholining bolalarini turli pog'onadagi o'quv yurtlariga jalb etish vazifalari bajarilishi yo'lida imkon qadar chora-tadbirlar belgilandi.

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi vrach va feldsherlarni safarbar qilish, kasalxona, dorixona (apteka), ambulatoriyalar ochish, aholiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq sezilarli amaliy qadamlar qo'yildi. Biroq, Rossiya imperiyasi hukumatining ijtimoiy siyosati kutilgan natijalarni bermadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Rossiya

imperiya siyosatining mustamlakachilik siyosati Turkiston o'lkasining, xususan, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamda tibbiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Mustamlaka ma'muriyati tomonidan olib borilgan yer siyosati, iqtisodiy resurslarning biryoqlama yo'naltirilishi va paxta yakkahokimligining o'rnatilishi natijasida mahalliy aholi iqtisodiy jihatdan qaram holatga tushib qolgan.

Tibbiyot sohasida esa muayyan ijobiy o'zgarishlar, jumladan, shifoxonalar, feldsherlik punktlari, ambulatoriyalar hamda turli xayriya jamiyatlarining tashkil etilishi kuzatilgan bo'lsa-da, ushbu tizim asosan ko'chib kelgan rusiyabon aholi manfaatlariga xizmat qilgan. Mahalliy aholi uchun tibbiy xizmatlarning yetarli darajada tashkil etilmagani, kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi hamda sanitariya-gigiyena muammolari sohaning to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

Shuningdek, ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi mavjud bo'lganiga qaramay, u ko'proq mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qilgan. Natijada, tibbiyot tizimi hududda notekis rivojlangan bo'lib, mahalliy va ko'chib kelgan aholi o'rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelgan.

Umuman olganda, mazkur davrda tibbiyot sohasidagi o'zgarishlar ijobiy tashkiliy jihatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, ular mustamlakachilik manfaatlariga bo'ysundirilganligi sababli, mahalliy aholi ehtiyojlarini to'liq qondira olmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Галузо П.Г. Аграрные отношения на Юге Казахстана в 1867-1914 гг. – С. 284.
2. O'z MA.,I-1-fond., 27-ro'yxat, 627-ish, 7-8 varaqlar.
3. O'z MA.,I-1-fond., 28-ro'yxat, 1488-ish, 20-, 21-, 22-varaqlar
4. O'z MA.,I-1-fond., 28- ro'yxat, 28-ish, 31-32 varaqlar
5. O'z MA.,I-1-fond., 1- ro'yxat, 28-ish, 12 varaq,12-varaqning orqasi
6. O'z MA.,I-1-fond., 1- ro'yxat, 1161-ish, 34- varaq
7. Обзор Закаспийской области 1904 г, Г.Асхабад, 1905 г. С.-105.
8. Обзор Закаспийской области 1914 г, Г.Асхабад, 1915 г. С.-230.
9. Обзор Закаспийской области 1914 г, Г.Асхабад, 1915 г. С.-126.
10. Обзор Закаспийской области 1914 г, Г.Асхабад, 1915 г. С.-126.